O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 13 - may 153-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 24 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-apreldagi 157-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 299-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 24 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-apreldagi 157-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 299-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlashda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 24 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-apreldagi 157-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 299-10-0-Q/24-sonli qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

a) Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda — OTB) direktorlar kengashi tomonidan 2023-yil 11-dekabrda “Sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — loyiha) amalga oshirish uchun 240,0 mln AQSh dollari miqdoridagi qarz mablag‘lari 5 yillik imtiyozli davr bilan 25 yil muddatga ajratilishi ma’qullanganligi;

b) loyiha bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va OTB o‘rtasida 2023-yil 29-dekabrda qarz bitimi imzolanganligi;

v) OTB tomonidan 2035-yilgacha mo‘ljallangan qishloq yo‘llarini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilganligi va loyiha doirasida quriladigan sement-beton qoplamali ichki yo‘llar ro‘yxati mazkur strategiya talablariga muvofiq shakllantirilganligi;

g) loyiha doirasida:

yo‘l qurilishi obyektlarida loyihani muhandislik boshqarish va texnik nazorat qilish ishlari Xalqaro muhandislar-konsultantlar federatsiyasi (FIDIC) amaliyoti va hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi;

qurilish ishlari yakunlanib, obyektlar foydalanishga qabul qilingandan so‘ng bosh pudratchi tomonidan 5 yil davomida kafolatli soz holatda saqlash va ekspluatatsiya qilish ishlari amalga oshirilishi;

qurilishda texnik nazoratni ta’minlash uchun mahalliy muhandis-konsultant kompaniyalar jalb qilinishiga alohida e’tibor qaratilishi, shuningdek, muhandiskonsultant kompaniyalar OTB tartibiga muvofiq soddalashtirilgan tanlov savdolari asosida tanlab olinishi;

qurilish ishlari tender savdolari natijalariga ko‘ra aniqlanadigan mahalliy pudratchilar tomonidan amalga oshirilishi;

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi) tizimidagi “Avtoyo‘linvest” agentligi huzurida loyihani amalga oshirish guruhi tashkil etilganligi;

d) Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan umumiy qiymati 304,9 mln AQSh dollari bo‘lgan loyihaning texnik-iqtisodiy asosi belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi hamda unga ko‘ra:

loyihani amalga oshirishda OTBning ulushi 240,0 mln AQSh dollarini, O‘zbekiston Respublikasining ulushi 64,9 mln AQSh dollari, shu jumladan bojxona bojlaridan ozod etish ko‘rinishida 28,4 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larni tashkil etishi;

loyihani amalga oshirish muddati 9 yil (2024 — 2032-yillar), shu jumladan qurilish ishlari 4 yil (2024 — 2027-yillar) hamda saqlash va ekspluatatsiya qilish ishlari 5 yil (2028 — 2032-yillar) etib belgilanganligi;

e) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Transport vazirligi, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan dastlabki o‘rganishlar natijasi bo‘yicha xarajatlar (32 mln AQSh dollarigacha) maqbullashtirilishi mumkinligi aniqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish” loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari;

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratiladigan qarzni qaytarish hamda foiz to‘lovlarini amalga oshirishning prognoz jadvali;

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish” loyihasi doirasida hududlar kesimida amalga oshiriladigan qurilish ishlari quvvati tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Tuman avtomobil yo‘llari bo‘limi (N.Soipov) tegishli bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda yashil hududlarni barpo etish maqsadida loyiha doirasida sement-beton qoplamaga o‘tkaziladigan avtomobil yo‘llarining yo‘l bo‘yi mintaqalarida iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda manzarali daraxt va terak ko‘chatlari ekilishini ta’minlasin.

Bunda, loyiha doirasida obyektlarning bosh pudratchilari tomonidan sementbeton qoplamali ichki yo‘llarni 5 yil davomida ekspluatatsiya qilish ishlari barpo etiladigan yashil hududlarni shartnoma asosida saqlash va parvarishlashni ham nazarda tutsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**